



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG‘I

24 iyul 2026 yil.

248/11-08-son

Toshkent shahri

**Bitiruvchi talabalarining kasbga tayyorlash jarayonlarini tashkil qilish va
moliyalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-iyundagi PQ-210-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va “O‘zmilliybank” AJning 2026-yil 30-iyundagi 46-q/q-son qo‘shma qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda “O‘zmilliybank” AJning 2026-yil 30-iyundagi 46-q/q-son qo‘shma qarori ijro uchun qabul qilinsin hamda **“Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotni tashkil etish”** yo‘nalishi bo‘yicha Tanlov komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

“Mening birinchi kasbim” dasturini amalga oshirish bo‘yicha shaxsiy javobgarlik rektorga yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Barcha prorektorlar, boshqarma (bo‘lim) boshliqlari, fakultet dekanlari va kafedra mudirlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda “O‘zmilliybank” AJning 2026-yil 30-iyundagi “Bitiruvchi talabalarining kasbga tayyorlash jarayonlarini tashkil qilish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 46-q/q-son qo‘shma qarori 1-ilovasida **“Mening birinchi kasbim”** dasturi doirasida bitiruvchi talabalarining amaliyotlarini moliyalashtirish tartibiga muvofiq amalga oshirsin.

“Mening birinchi kasbim” dasturi doirasida bitiruvchi bosqich talabalarga amaliyotlarni moliyalashtirish tartibi mazmun-mohiyatini talabalarga yetkazsin.

3. Tanlov komissiyasiga:

"Mening birinchi kasbim" hamda "Kelajakka qadam" dasturlari doirasida bitiruvchi talabalarining haq to‘lanadigan kasbiy amaliyotlarini to‘laqonli amalga oshirish;

Tartibning mazmun-mohiyatini bitiruvchi talabalarga yetkazish;

salohiyatli ish beruvchi tashkilotlar, shu jumladan, yirik korxonalarning oliy ma'lumotli mutaxassislarga ehtiyojini aniqlash va mutaxassislarga qo'yiladigan talablarni shakllantirib borish;

kadrlarning asosiy iste'molchilari bo'lgan ish beruvchi korxona va tashkilotlar bilan tanlovlarda ishtirok etish istagidagi talabalarni kelgusida ish bilan ta'minlanishini nazarda tutuvchi amaliyotlarini tashkil etish bo'yicha dastlabki shartnomalarni rasmiylashtirish;

tanlovlarda ishtirok etish istagidagi talabalar bo'yicha talab etilgan hujjatlarni rasmiylashtirish va tanlovlarga taqdim etilishini ta'minlash;

tanlovlar natijalariga ko'ra ijobiy baholangan talabalarning haq to'lanadigan amaliyotlarini tashkil etish bo'yicha oliy ta'lim tashkiloti, ish beruvchi tashkilotlar va talabalar o'rtasidagi uch tomonlama kelishuv shartnomalarini rasmiylashtirish. Bunda talabalarning oliy ta'lim tashkilotini tamomlagandan keyin shartnoma rasmiylashtirilgan korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinishini ta'minlash;

belgilangan vazifalar yuzasidan doimiy monitoring yuritish hamda tahliliy ma'lumotlar tayyorlab borish;

amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni har chorak yakuniga qadar vazirlikka taqdim etib borish.

4. Rektor matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi O.Ibragimov va karyera markazi:

10 kun muddatda Tartibning mazmun-mohiyatini bitiruvchi talabalariga ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalar orqali yetkazsin.

Doimiy ravishda salohiyatli ish beruvchi tashkilotlar, shu jumladan, yirik korxonalarning oliy ma'lumotli mutaxassislarga ehtiyojini aniqlash va mutaxassislarga qo'yiladigan talablarni shakllantirib borsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Rektor



I.M.Tuxtasinov

Universitetning “____” “____” 2026-yildagi
____sonli buyrug‘iga ilova

**“Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish”
ochiq tanlov komissiyasi tarkibi**

T/R	F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1.	I.M.Tuxtasinov	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori, Tanlov komissiyasi raisi
2.	M.Ch.Chutpulatov	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, Tanlov komissiyasi raisi o‘rinbosari
3.	M.S.Xamrayev	Moliya - iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo
4.	X.Nazarov	Bosh hisobchi, a‘zo
5.	N.Normatov	“O‘zmilliybank” AJ Uchtepa BXM loyiha menejeri v.v.b, a‘zo
6.	Sh.Abdilayev	Yuriskonsult, a‘zo
7.	G‘.Mamatov	Jismoniy va yuridek shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i, a‘zo
8.	F.Eshmamatov	Talabalar amaliyoti bo‘limi boshlig‘i, a‘zo
9.	O.Qaramanov	Talabalar amaliyoti bo‘limi bosh mutaxassisi, Tanlov komissiyasi kotibi

** Izoh: Mazkur komissiya tarkibiga kiritilgan shaxslar boshqa lavozimga o‘tkazilgan yoki egallab turgan lavozimidan ozod etilgan taqdirda, ularning o‘rniga tegishli lavozimga tayinlangan shaxslar komissiya a‘zosi hisoblanadi. Zaruratga ko‘ra komissiya tarkibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.*